

# TARAQQIYOT TADQIQOTLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

## ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ: ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

### DEVELOPMENT STUDIES: PERSPECTIVES ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT

**HAYOTOV Farmon Davlat o'g'li**

*Buxoro davlat pedagogika*

*instituti 1-kurs magistranti*

#### OILA INSTITUTINING EVOLYUTSIYASI

##### ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda oila institutining tarixiy shakllanishi va evolyutsiyasi bosqichma-bosqich o'rganilgan. Tadqiqotda oila institutining ibtidoiy jamiyatdagi oddiy nikoh shakllaridan boshlab, zamonaviy huquqiy asoslangan, murakkab ijtimoiy tizim sifatida rivojlanishi tahlil qilinadi. Ayniqsa, oila institutining zamonaviy jamiyatdagi o'rni, funksiyalari va hozirgi davrda duch kelayotgan muammolari - ajralishlar, migratsiya, iqtisodiy bosim, an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy tendensiyalar o'rtasidagi to'qnashuvlar atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila instituti, tarixiy evolyutsiya, ibtidoiy jamiyat, zamonaviy oila, sotsiologik tahlil, ajralishlar, migratsiya, iqtisodiy bosim, an'anaviy qadriyatlar, zamonaviy tendensiyalar, o'zbek milliy qadriyatlari, oilaviy siyosat, milliy tarbiya, ijtimoiy barqarorlik.

Oila jamiyatning eng qadimiy va muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Bugungi global ijtimoiy o'zgarishlar fonida oila institutining o'zgarishi dolzarb masalalardan biri sanaladi. Oila insoniyat tarixining eng qadimiy va eng barqaror ijtimoiy institutlaridan biridir. U inson jamiyati rivojlanishining barcha bosqichlarida muhim rol o'ynagan, shaxsning shakllanishi, ijtimoiylashuvi va ma'naviy rivojida asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

Oila institutining genezesi - ya'ni uning kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini o'rganish, zamonaviy ijtimoiy fanlar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Antropologik va tarixiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila dastlab biologik ehtiyojlar negizida paydo bo'lgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan murakkab ijtimoiy institutga aylangan. Oila institutining ijtimoiy ahamiyati uning jamiyatdagi asosiy funksiyalaridan kelib chiqadi.

Oila avlodlarni tarbiyalash, ijtimoiy me'yorlarni o'rgatish, iqtisodiy va psixologik qo'llab-quvvatlash kabi funksiyalarni bajaradi. Shuningdek, oila jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Qadimgi urug'-qabila tuzumi davrida nikoh, qarindoshlik va nasl-nasab masalalari bo'yicha turli xil urf-odatlar vujudga kelgan. Keyinchalik sinfiy jamiyatlarning shakllanishi bilan birga oila huquqiy va iqtisodiy jihatdan ham rasmiylashgan institutga aylangan. Tarixiy-antropologik yondashuvlar oilaning dastlab biologik va instinktiv ehtiyojlarga asoslangan shaklini ko'rsatadi.

Urug'chilik jamiyatlaridagi guruhli nikoh, matriarxal va keyinchalik patriarxal tizimlarning vujudga kelishi oila institutining dastlabki bosqichlaridan dalolat beradi. Falsafiy qarashlarda esa oila inson va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi vosita sifatida qaraladi. Masalan, Konfutsiy oila orqali jamiyatdagi ijtimoiy tartib va ierarxiyani asoslaydi, Platon esa davlatning soddalashtirilgan modeli sifatida oilani tahlil qiladi. Oila shakllanishining har bir bosqichi ma'lum bir davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, axloqiy me'yorlari va madaniyatiga bog'liq bo'lgan. Yangi davrga kelib, modernizatsiya, urbanizatsiya, ayollar huquqlari, gender rollarining o'zgarishi kabi omillar oila institutining mohiyatini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'ldi. Hozirgi global davrda esa an'anaviy oila shakllariga nisbatan zamonaviy model – funksional, psixologik va huquqiy o'zaro tenglik asosidagi oila modeli paydo bo'lmoqda.

Zamonaviy davrda oila institutining ahamiyati yanada ortmoqda, biroq uning an'anaviy shakllariga nisbatan muayyan bosimlar ham kuzatilmoqda. Zamonaviy davrda oila instituti nafaqat shakl va funksiyalar jihatidan o'zgarib bormoqda, balki turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muammolarga ham duch kelmoqda. Bu muammolar global miqyosda mavjud bo'lib, o'zbek jamiyati kontekstida ham jiddiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan ajralishlar sonining ortishi. So'nggi yillarda ajralishlar statistikasi keskin o'smoqda. Buning sabablari orasida: iqtisodiy muammolar, yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy ta'sirlar, ma'naviy qadriyatlarning zaiflashuvi. Ajralish nafaqat er-xotin orasidagi munosabatlarga, balki farzandlarning psixologik holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy bosim va migratsiya, ishsizlik, uy-joy muammosi, past daromad darajasi ko'plab erkaklarni xorijga ishlash uchun ketishga majbur qilmoqda. Bu holat uzoq muddatli oilaviy ajralishlarga sabab bo'ladi va natijada, farzandlar tarbiyasi izdan chiqadi, er-xotin orasidagi ishonch zaiflashadi, "yarim oilalar" paydo bo'ladi (ota yoki ona doimiy yo'q). An'anaviy va zamonaviy qadriyatlar to'qnashuvi.

Hozirgi kunda yoshlar orasida: mustaqillik va erkinlikka bo'lgan intilish, gender tengligi, zamonaviy turmush tarzi kabi tendensiyalar kuchaymoqda. Bu holat ko'plab oilalarda avlodlararo qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmoqda. Keksalar an'anaviy yondashuvni yoqlasa, yoshlarda yangi qarashlar ustuvorlik qilmoqda. Axborot xurujlari va madaniy buzilish. Ijtimoiy tarmoqlar, filmlar, internet orqali tarqalayotgan chet el qadriyatlari o'zbek oilaviy an'analariга zid bo'lishi mumkin. Bu holat: turmushga jiddiy qaramaslik, sadoqatsizlik, oilaviy mas'uliyatdan qochish kabi salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

Oilaviy zo'ravonlik va psixologik muammolar. So'nggi yillarda oilalarda: jismoniy va ruhiy zo'ravonlik, ayollar va bolalar xavfsizligi, psixologik bosim kabi holatlar ko'paymoqda. Bu muammolar ba'zan yashirin bo'lib, ochiq ko'rinmaydi, biroq jamiyatda barqarorlikni buzuvchi omilga aylanadi.

Globalizatsiya, shahar madaniyatining kengayishi, nikoh yoshining kechikishi, ajrimlar sonining ortishi kabi omillar oilaning sotsial rolini o'zgartirmoqda. Zamonaviy davrda oila instituti jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolarni chuqur tahlil qilish va ularning ildizini aniqlab, ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish - sotsiologlar, pedagoglar, huquqshunoslar va davlat siyosatchilari oldida turgan dolzarb vazifadir. Oila mustahkamligi jamiyat barqarorligi asosidir. Shu sababli oila institutining genezesi va zamonaviy holatini chuqur ilmiy tahlil qilish, uni jamiyat taraqqiyoti kontekstida baholash nihoyatda muhimdir.

Zamonaviy jamiyatda oila instituti o'zining an'anaviy funksiyalaridan tashqari, yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashmoqda. Oila nafaqat avlodlarni tarbiyalash, balki ijtimoiy integratsiya, gender tengligi, iqtisodiy barqarorlik va psixologik qo'llab-quvvatlash kabi yangi funksiyalarni ham bajaradi. Oila institutining zamonaviy roli uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirad. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar, xususan, ayollar va oilani qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati, oila institutining mustahkamlanishiga qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar, jumladan prezidentning 2018-yil 27-iyundagi PQ-3818-son qarori, 2019-yil 7-martdagi PQ-4231-son qarori, doirasida ham oila va yoshlar bilan bog'liq masalalar doimiy diqqat markazida turibdi. Xususan, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Oila maktablari" kabi amaliy platformalar oilaning ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, oila institutining genezesi masalasini o'rganish orqali insoniyat tarixidagi eng muhim ijtimoiy institutning qanday shakllangani, o'zgargani va bugungi kunda qanday ahamiyat kasb etayotganini aniqlash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, barqaror jamiyat qurish, sog'lom avlod tarbiyasi va ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. G'aniyeva, N. B. Oila va jamiyat: sotsiologik yondashuvlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – 176 b.
2. Karimova, M. A. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 234 b.
3. Normurodov, I. T. Jamiyatshunoslik: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya Ziyosiyoti, 2021. – 288 b.
4. Toshxo'jayev, Sh. O'zbek oilasining tarixiy shakllanishi va qadriyatlari // Tarixiy meros jurnal. – 2020. – №2. – B. 42–50.
5. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston – yangi hayot bilan. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 304 b.
6. “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3818-son qarori.” – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
7. “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4231-son qarori.” – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. Qodirova, M. Oila sotsiologiyasi. – Toshkent: Ilm Ziyosiyoti, 2017. – 192 b.